TALABALARNING BILIMLARNI O‘ZLASHTIRISH DARAJASI ALGORITMI

Abdukarimov X.,
GulDU Pedagogika va
psixologiya kafedrasi p.f.d., professori v.b.

Annotatsiya: ushbu tezisda talabalarning bilimlarni o‘zlashtirish darajasi algoritmi va bosqichlari tizimli yoritilgan. O‘zlashtirish darajalari va kafolatlangan natija alohida o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: talaba, baho, bilim, ko‘nikma, malaka, o‘zlshtirish darajasi, algoritm, mutaxassis, kasb, kompitensiya.

Аннотация: в данном тезисах систематически описаны алгоритм и этапы усвоения знаний учащимися. Уровни освоения и гарантированный результат изучаются отдельно**.**

Ключевые слова: студент, оценка, знания, умения, квалификация. уровень мастерства, алгоритм, специалист, профессия, компетентность.

Abstract: this article systematically describes the algorithm and stages of students' knowledge acquisition. The levels of acquisition and the guaranteed result are studied separately.

Keywords: student, grade, knowledge, skills, qualifications. level of acquisition, algorithm, specialist, profession, competence.

Ta’lim va tarbiya eng noèb kapital sifatida qadrlanaètgan bugungi sharoitda ta’lim natijalarini baholash samaradorligini oshirish va usullarini takomillashtirish mexanizmlarini joriy etish orqali barcha insonlar uchun sifatli ta’lim olish imkoniyatlari yaratilmoqda.

Mamlakatimizda ta’lim-tarbiya sohasiga davlat sièsati darajasida alohida e’tibor qaratilib kelinmoqda. Bu esa o‘z navbatida kadrlar tayèrlash sohasi oldiga ta’lim muassasalari faoliyati samaradorligini zamonaviy talablar asosida oshirish vazifasini qo‘ymoqda. Shu sababli ham bugungi kunda bo‘lajak mutaxassislarni yuksak kasbiy salohiyat va insoniy sifatlarga ega bo‘lishi talab etiladi.

Jahon amaliètida muayyan mutaxassislar kasbiy kompetentligini takomillashtirish bo‘yicha olib borilaètgan ilmiy izlanishlarda ta’lim baholash natijaviyligiga alohida e’tibor berilgan bo‘lib, bunda asosiy urg‘u ta’lim sifati menejmentiga qaratilmoqda. Bu yo‘nalishdagi ilmiy izlanishlar oliy ta’lim tizimini boshqarishning nazariy-metodologik asoslari, sifat menejmenti va ta’lim sifati monitoringini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish hamda ta’lim sifati va samaradorligi uyg‘unligini ilmiy jihatdan asoslovchi takliflarni ishlab chiqish, oliy ta’lim sifatini baholash tizimini takomillashtirish masalalariga qaratilgan. Respublikamizda kadrlar tayèrlash sohasida amalga oshirilaètgan uzluksiz ta’lim tizimidagi islohotlar ta’lim jaraènlarini tashkil etish va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishni, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning zamonaviy talablariga mos keladigan, demokratik va insonparvarlik tamoyillariga asoslangan ta’lim sifati boshqaruvini shakllantirishni taqozo etmoqda.

O‘quvchilarni bilim, ko‘nikma, malakalarini o‘zlashtirish darajalarini bosqichlari.

1-bosqich uchun.

O‘quv materialining idrok etilishi, o‘quv-biluv jarayonining qaysi jihatlarida muammoli savol va muammoli vaziyatlarga duch kelayotganligi, psixik jarayonlar

(sezgi, idrok, xotira, tafakkur) uyg‘unligi diqqatning ko‘lami asosida talabaning mustaqil fikrlay olishiga asosiy e’tibor qaratiladi.

Shunga mos keluvchi savollar tanlanilib, talaba qiziqtiriladi. Talabada o‘z-o‘zini tahlil etish ko‘nikmalari shakllantiriladi.

2-bosqich uchun.

Talaba bir muncha yangi bilim va tushunchalarni anglaydi, tushunadi, dastlabki xulosalar chiqara boshlaydi. O‘z-o‘zini tahlil etish jarayonida saralash, taqqoslash ko‘nikmalari shakllanadi. O‘qituvchi tomonidan tegishli nazorat topshiriqlari tanlanadi.

3-bosqich uchun.

Talaba ma’lum darajada faollik, tashabbus, mustaqil fikr hamda o‘z-o‘zini tahlil va taftish etishi, ko‘nikma–malakalari ko‘zga tashlanadi. Yangi bilimlarni mashq qilish, test topshiriqlarini yechish, amaliy misollar keltirish, tahlil, qiyoslash asosida xotirada saqlashga (olib qolishga) intilishi kabi harakatlar ko‘zga tashlanadi.

4-bosqich uchun.

Talaba faol harakat va urinishlar asosida yangi bilimlarni tezda o‘zlashtira oladi. Psixik jarayon va diqqatida uyg‘unlik mavjud. Olgan bilimlarini amalga tatbiq eta oladi. O‘z-o‘zini tahlil etib, yo‘l qo‘ygan xato va kamchiliklarini isloh eta olish ko‘nikmalariga ega bo‘ladi. Masalaning mohiyatidan kelib chiqib, induktiv va deduktiv xulosalar chiqara oladi.

5-bosqich uchun.

Faollikni va ba’zan liderlikni qo‘ldan bermaslikka intiladi. Mustaqil fikrga ega. Ijodkor, nutqi ravon va mantiqli, muammoli vaziyatlar yechimini topa oladi. Nazorat topshiriqlarini qisqa fursatda yechib ulguradi. Induktiv va deduktiv xulosalar chiqarish qobiliyatiga ega.

Mavzuga (fanga) oid tushunchalar mohiyatini yaxshi biladi. O‘z-o‘zini nazorat qilgan holda o‘z-o‘zini baholay oladi. Olgan bilim, egallagan ko‘nikma va malakalarini amalga tatbiq etishda qiynalmaydi. Bilimlarini to‘ldirish, boyitish, yangilashga intiladi. Egallayotgan kasbiga bo‘lgan munosabati yaxshi.

Uyga vazifa:

5-bosqichga muvofiq mustaqil ish topshiriqlari beriladi.

1. Mavzuning mazmunini xotirada saqlash, esga tushurish, qayta ifodalash.
2. Mavzuning mohiyatini izohlash, farqlash.
3. Tatbiq etish, qo‘llash, amalda bajarish.
4. Tahlil qilish, tarkibiy qismlarga ajratish
5. Umumlashtirish, xulosalar chiqarish, to‘ldirish.

Vazifa yuzasidan nazorat savollari berib ko‘riladi.

Kafolatli natija:

1. Dastlabki axborotlarga ega bo‘lish.
2. Reproduktiv darajadagi bilimni namoyon etishi va uning dinamikasini kuzatish.
3. Mustaqil fikrni shakllanganligi (rivoji).
4. Faollik, ijobiy izlanishga bo‘lgan qiziqishi va munosabati.
5. Og‘zaki va yozma nutq mahorati.
6. Ma’naviy-ahloqiy hamda kasbiy qiyofasi.

7. E’tiqodi.
8. Ijtimoiylashish darajasi.
9. Egallagan bilimlarini amalda tatbiq etib, tegishli natijalarini qo‘lga kiritishi.
10. Ijobiy o‘zlashtirishlar darajasini ko‘rsatishi.
11. O‘qituvchi dars jarayonidagi o‘zini va o‘quvchilarining faoliyatini tahlil qiladi. Tegishli xulosalar chiqaradi. O‘zgartirish va to‘ldirish kiritishga harakat qiladi.
12. Mavzuga oid adabiyotlar va qo‘shimcha vositalar.

Ayni paytda ushbu algoritmni o‘qituvchi tomonidan ijodiy rivojlantirib borilishi ta’lim samaradorligiga erishishni kafolatlaydi.

Bu jarayonda o‘quvchi-talabada hosil bo‘lgan pedagogik-psixologik bilim, ko‘nikma va malakalar muhim ahamiyatga ega bo‘lib, uning kasbiy kamolotiga xos sifatlarni belgilaydi.

Pedagogik – psixologik bilim, ko‘nikma va malakalar

Bilim. Real voqelik elementlarining sub’ekt ongida aks etishiga bilim deyiladi. Fanning metodologik asoslari, milliy g‘oya, milliy mafkura va milliy qadriyatlar asosida barkamol shaxsning ma’naviy – axloqiy hamda kasbiy kamoloti qonuniyatlari, ilmiy–tadqiqot metodlari, ta’lim prinsipari, qonuniyatlari, metodlari hamda ta’limning mazmuni, uni amalga oshirish shakllarini bilish. Shaxsning iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, ijtimoiy, anatomik-fiziologik, gigienik va psixologik shakllanish qonuniyatlari, individual-ruhiy rivojlanish asoslarini bilish. Milliy hamda umuminsoniy tarbiyaning prinsiplari, qonuniyatlari hamda uni amalga oshirishning yo‘l-yo‘riqlari, yoshlarni ongli va asosli ravishda kasb tanlashga yo‘naltirish, ularni kasbiy o‘z – o‘zini tarbiyalash prinsiplarini bilish.

Ta’lim jarayonini boshqarish (menejment) prinsiplari, qonuniyatlari hamda metodlarini bilish.

Pedagogik jarayonni diagnostika qilish, uning monitoringini olib borish yo‘l-yo‘riqlarini, global pedagogik hamda psixologik ta’lim – tarbiyaning qonuniyatlarini bilish. Pedagogika va psixologiya fanlarining o‘zaro aloqadorligi qonuniyatlarini, fanlararo va fanlar sistemasida tutgan o‘rnini bilish. Pedagogika va psixologiya fanlarini ijtimoiy hayot rivojida tutgan o‘rnini hamda yechimini kutayotgan fundamental muammolarini bilish.

Ko‘nikma. Bilim asosida bajariladigan dastlabki xatti-harakatlar yig‘indisiga ko‘nikma deyiladi. Bajariladigan amallarni tushunib olish, unga qiziqish va tasavvur qila olish ko‘nikmasi; yangiliklar mohiyatini anglash ko‘nikmasi; qo‘yilgan maqsadni aniq tushunib borish ko‘nikmasi; bajarilishi lozim bo‘lgan ishining ayrim elementlarini yoddan bilib olish ko‘nikmasi; bajarish operatsiyalarini analiz qilish va tegishli xulosalar chiqara olish ko‘nikmasi; diqqat bilan e’tibor bera olish ko‘nikmasi; ortiqcha urinish va harakatlarni asta-sekin bartaraf eta olish ko‘nikmasi; vaqtdan unumli foydalanish harakatining sifatini oshirish ko‘nikmasi; yangi sharoitga moslasha olish ko‘nikmasi; ishni ixcham va maqsadga muvofiq bajarishga erishish ko‘nikmasi; avval egallab olingan malakalar asosida ish elementlarining avtomatlashuviga erishish ko‘nikmasi; o‘z tajribasida bor faoliyat usullari va metodlaridan unumli foydalana olish asosida yangi malakalarni hosil bo‘lishiga erishish ko‘nikmasi; kuchli diqqat va iroda asosida ko‘nikmalarining avtomatlashuvi, ya’ni malakaga aylanishi.

Qonuniyat. Har qanday malaka ko‘nikmadir, ammo har qanday ko‘nikma malaka bo‘la olmasligi mumkin.

Malaka. Avtomatlashgan va barqaror (mustahkam) tus olgan ko‘nikmalarga malaka deyiladi. Ta’lim va tarbiyaviy ishlarni aniq maqsadga qaratilgan holda rejalashtira olish malakasi; pedagogik vazifalarni yechish shart-sharoitlarini belgilash malakasi; ta’lim-tarbiyaviy islohotlarda faol qatnashish malakasi; nazariy va amaliy jihatdan asoslangan ta’lim-tarbiya prinsiplari, qonuniyatlari hamda metodlarini tanlash va tatbiq etish malakasi; o‘quvchi va talabaning bilimdonligi, tarbiyalanganlik darajasi, ma’naviy-axloqiy qarashlari hamda kasbiy munosabatlarini to‘g‘ri baholay olish malakasi; belgilangan ta’limiy va tarbiyaviy maqsadlarga erishishni oldindan bashorat qila olish, yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan kamchilik hamda qiyinchiliklarning oldini ola bilish malakasi; pedagogik innovatsion yondashuvlar asosida dars jarayonini tashkil etish va o‘quvchi (talaba) faoliyatini “sub’ekt-sub’ekt” munosabatlar darajasida boshqarish malakasi; nazorat topshiriqlarni o‘quvchi va talabaning o‘zlashtirish darajalariga qarab belgilash malakasi; ta’lim-tarbiyaviy jarayonni ilmiy asosida nazorat qilish va boshqarish malakasi; dars tahlili va uning metodikasini texnologik talablar darajasida bajara olish malakasi; ota-onalar va jamoatchilik bilan ishlay olish malakasi; uzluksiz ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlari bilan hamkorlik qilish, homiy va vasiy tashkilotlar bilan ish yurita olish malakasi; muammoli pedagogik vaziyatlarni o‘rganish, loyihalash va yechimini topa olish malakasi; ijtimoiy-pedagogik vaziyatlarni tahlil eta olish, tegishli xulosa chiqarish, tavsiyalar berish hamda baholay olish malakasi; yangi bilimlarni ehtiyojga va e’tiqodga aylanish hamda kasb kamolotiga intilish malakasi va hokazo.

Egallangan bilim, ko‘nikma va malakalar o‘quvchi-talabaning mustaqil ravishda bajargan ishlarida o‘z aksini topmog‘i lozim .

Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki, o‘quvchilarning o‘quv-biluv faoliyatini faollashtirish va samaradorligini ta’min etishga qaratilgan pedagogik texnologiyalar, barqaror motivlar tarbiyasi asosidagi ongli intizomga amal qilish, ko‘zlangan maqsadga erishish yo‘lidagi ijodiy muhitni qaror toptirishga qaratilgan. O‘quvchilarning o‘quv-biluv motivlarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan insonparvarlik g‘oyasi va uning samarasi akademik litsey, pedagogik hamda kasb-hunar kollejlar jamoasi mehnatiga berilgan baho hisoblanadi. Uning kafolatli natijasi o‘quvchilarning ijodkorlik faoliyati bilan belgilanadi.

Ijodiy ishlar muallifi bo‘lish, fan olimpiadasi g‘olibligini qo‘lga kiritish, fan yo‘nalishlarini chuqur o‘zlashtirish asosida tanlagan kasbi bo‘yicha oliy o‘quv yurtlariga kirish motiv va maqsad uyg‘unligini ta’minlaydi.

Foydalanlgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 79-modda Vazirlar Mahkamasining 29.04.2024 yildagi «Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining o‘quvchilarini pedagog kasbiga maqsadli tayyorlash va bitiruvchilarning bandligini ta’minlash choratadbirlari to‘g‘risida»gi 242-son qarori

2. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni